

BOJXONA XIZMATI XODIMLARINI KASBIY TAYYORGARLIGIDA MA'NAVIY- AXLOQIY FAZILATLARNI RIVOJLANTIRISH ZARURATI

Sodiq Oqboyevich Yuldashev

Alisher Temirovich Achilov

Tashkent International University "Huquqiy fanlar" kafedrası professor-o'qituvchilari

Miraziz Mirgiyazovich Abzalov

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya

vazirligi huzuridagi Bojxona Qo'mitasining

Toshkent shahar boshqarmasi xodimi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18345306>

Annotatsiya: Maqolada O'zbekiston Respublikasi bojxona organlarining mamlakat iqtisodiy xavfsizligini, jamiyat salomatligini va qonun ustuvorligini ta'minlashdagi o'rni, bojxona xizmati xodimlari faoliyatida ma'naviyat masalalarini ahamiyati va bojxona xodimlarining axloqiy fazilatlarini xalqimizga, davlatimiz rivojiga ta'siri hamda yosh xodimlarning kasbiy faoliyat uchun zarur bo'lgan fazilatlarini haqida mulohazalar keltirilgan.

Kalit so'z va iboralar: bojxona xizmati, iqtisodiy xavfsizlik, ma'rifat, ma'naviyat, milliy qadriyat, axloqiy sifatlar, vatanparvarlik.

26 yanvar — O'zbekiston Respublikasi Bojxona xodimlari kuni. Bu sana — davlat chegaralarida tinchlik va xavfsizlikni ta'minlab kelayotgan, el-yurt manfaatlarini o'z hayotidan ustun qo'yayotgan fidoyi kasb egalariga bo'lgan chuqur ehtirom ifodasidir.

Bojxona xizmati — bu faqatgina nazorat emas, balki ulkan mas'uliyat, yuksak zakovat, tezkor fikr va halollikni talab etuvchi sharaflı yo'ldir. Bojxona xodimlari har kuni mamlakat iqtisodiy xavfsizligini, jamiyat salomatligini va qonun ustuvorligini ta'minlash yo'lida og'ir, ammo sharaflı xizmatni bajarmoqdalar.

Kishilik jamiyatida xalq va davlatchilik paydo bo'libdiki, tinch-totuv yashashi, faravon hayot kechirishi, mustahkam va intizomli jamiyat qurishda ma'naviyatning ahamiyati beqiyosdir.

Insoniyatning ko'p ming yillik tajribasi shuni ko'rsatdiki, dunyodagi zo'ravon va tajovuzkor kuchlar qaysi bir xalq yoki mamlakatni o'ziga tobe qilib, bo'ysundirmokchi, uning boyliklarini egallamoqchi bo'lsa, avvalambor, uni qurolsizlantirishga, ya'ni eng buyuk boyligi bo'lmish **milliy qadriyatlari, tarixi va ma'naviyatidan** judo kilishga urinadi.

Ma'lumki, miloddan avvalgi 329 yillarda Aleksandr Makedonskiy, VIII asrning 1-yarmida Arab xalifaligi, XIII asrning 1-choragida Mug'ullar, XIX asrning 4-choragida Chor Rossiyasi va XX asrning 1-choragida sobiq Sovet davlati tomonidan amalga oshirilgan istilolar jarayonida ajdodlarimizning qanchadan qancha milliy qadriyatlari, tarixi, tili, madaniyati va ma'naviyati taptaldi, ayrimlari batamom yo'q qilindi.

Masalan, o'tgan asrning 20-yillarida sovet davlati o'z xalqini boqolmay qoladi: un, bug'doy yo'q, qahatchilik boshlangan. Bu mahsulotlarni xorijdan olib kelish kerak, lekin bu paytda davlatning g'aznasi ham bo'shab qolgan. Shunda Moskvadan "O'rta Osiyoda noyob kitoblar bor, ularni olib xorijga sotish kerak"ligi haqida buyruq berilgan. Shundan so'ng ko'plab kitoblar yig'ib olingan. Ma'rifatparvar adibimiz Cho'lpon "Keyin bularni tonnalab tilloga ham qaytarib ololmaymiz", deb ko'ziga yosh olgan ekan. Bugungi amalga oshirilayotgan islohotlar fikrimizning dalilidir (*"Milliy tiklanish" gazetasi, 01.09.2018 yil, № 36*).

Har qaysi millat yoki xalqning ma'naviyati uning bugungi hayoti va taqdirini, o'sib kelayotgan farzandlarining kelajagini belgilashda shak-shubhasiz hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Binobarin, ma'naviyatga qarshi karatilgan har kandy tahdid o'z-o'zidan mamlakat xavfsizligini, uning milliy manfaatlarini, sog'lom avlod kelajagini ta'minlash yo'lidagi jiddiy xatarlardan biriga aylanishi va oxir-oqibatda jamiyatni inqirozga olib kelishi mumkin.

Shu borada, avvalo, "Ma'naviyat" va "Ma'rifat" iboralari tushunchalarini mazmun-mohiyatini bilish o'rinlidir.

Ma'rifat (arab. "arafa" *"bilmoq, anglamoq, idrok etmoq ma'nolarini anglatadi"*) - ta'lim tarbiya, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, falsafiy, ijtimoiy va diniy g'oyalar majmuasi asosida kishilarning ong-bilimini, madaniyatini o'stirishga qaratilgan faoliyat.

Ma'naviyat (arab. ma'nolar majmui) - kishilarning falsafiy, hukukiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, diniy tasavvurlari va tushunchalari majmuidir. Ma'naviyat millatning yuzaga chiqqan aqliy va ruhiy salohiyati hamda ijodkorlik kobiliyatidir.

Birinci Prezidentimiz o'zining "Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch" asarida "ma'naviyat" iborasiga aniq va lo'nda kilib ta'rif bergan. Unga ko'ra, **"ma'naviyat"** insonni ruhan poklanish, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodani baquvvat, iymon-e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir.

Davlatimiz rahbari Shavkat Miromonovich Mirziyoev, fuqarolar bilan saylovoldi uchrashuvlarida o'zbek xalqini e'tirof etilishi, qadrlanishi hamda insonlarning bahamjihat yashashi uchun quyidagi fazilatlar: shijoatlilik, mexribonlik, faollik, Vatanni sevis, o'z yeri, o'z yurtiga fidoyi, mardlik, olijanoblik, bag'rikenglik, har qanday sharoitda ham ishonchni oqlash, jonkuyarlik, oriyatlilik, mehnatsevarlik, sabr-bardoshlilik, ilmga astoydil intilish, mexr-oqibat, jasur, barkamollik, faollik, samimiylik, kamtarinlik, oqko'ngillik, xalq bilan birga bo'lish, pok niyatlilik, qo'li gullik kabi fazilatlar sabab bo'lgan deya ta'kidlagan. Shuningdek, ushbu fazilatlar O'zbekiston hududining qaysidir bir chekkasida yorqinroq va ahamiyatliroq namoyon bo'lganligi uchun ham xudud aholisining milliy xarakteri shakllangan deya izohlaydi va bu fazilatlarni avlodlardan-avlodlarga sayqallashtirib yetkazish borasidagi tarbiyaviy ahamiyatiga alohida urg'u berdi¹.

Mamlakatimizda davlat organlari va huquqni muhofaza qiluvchi organlarning samarali faoliyat olib borishlari uchun kadrlar salohiyati muhim o'rin tutadi. Chunki yurtimizning ravnaqi, tinchligi va osoyishtaligi, shaxs huquq va erkinliklari hamda mamlakatimiz iqtisodiy xavfsizligini ishonchli himoya qilinishini ta'minlash vazifasi huquqni muhofaza qiluvchi organlarning asosiy vazifalaridan hisoblanadi.

Bojxona xodimlari faoliyatida ma'naviyat masalasi muhim o'rin tutadi. Chunki axloqiy fazilatlarga ega bo'lmagan xodim xalqimizning yetuk farzandlari sifatida mamlakatimizning umumiy manfaatlarini himoya qilishga qodir emas. Shu bois, bugungi kunda, bojxona organlari xizmatiga qabul qilinayotgan nomzodlarning ma'naviyatiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

¹ Mirziyoev Sh. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birga barpo etamiz. Toshkent: O'zbekiston, 2016. -56 b. / Mirziyoev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. O'zbekiston, 2017.-488 b.

Hech bir davlat o'z fuqarolari ongida ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni rivojlantirmay va mustahkamlamay turib taraqqiy eta olmaydi. Chunki, yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlar bilan bir qatorda, afsuski, ma'naviyatga zid illatlar ham mavjud. Ular avvalo insonning, keyin esa jamiyatning sha'niga dog' tushiradi, shu asnoda, mamlakatning taraqqiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ma'naviyatga zid illatlar umuminsoniy axloqqa zid illatlar hisoblanadi. Shuning uchun ular keng jamoatchilik tomonidan doimo qoralanadi. Aynan ular bojxona xodimining kasbiy tanazzulga yuz tutishiga sababchi bo'ladi.

Axloq kishilarning bir-biriga, oilasiga, Vataniga, o'zi yashayotgan jamiyatga bo'lgan munosabatida namoyon bo'ladigan xatti-harakatlari yig'indisi sifati inson hayotida muhim ahamiyat kasb etadi. Axloqiy fazilatlarining yuksak darajada bo'lishi nafaqat insonning o'zi uchun, balki uning oilasi, mahallasi, mehnat jamoasi, hattoki Vatani uchun ijobiy jihatdan ta'sir ko'rsatadi. O'z navbatida axloqsizlik nafaqat alohida insonning, balki umumiy tarzda butun bashariyatning sha'ni va qadr-qimmati poymol bo'lishiga sabab bo'ladi.

Bojxona xodimlarining axloqsizligi, ya'ni jinoyatga qo'l urishi uning o'zidan ham ko'ra ko'proq xalqimizga, davlatimiz rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Chunki bojxona xodimi respublikamizning iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish bilan bir vaktida, yurtimizga fuqarolarimiz salomatligi uchun zararli narsa va vositalarni olib kirilishini oldini olishga mas'uldirlar. Bu sharafl va o'ta mas'uliyatli vazifani to'laqonli ado etish jarayonida bojxona xodimlari oldida juda ko'p tabiiy va sun'iy to'siqlar, xavf-xatarlar mavjudligi hech kimga sir emas. Aynan shu kabi holatlarda bojxona xodimining iymon-e'tiqodi, qasamyodiga sodiqligi, halollik, poklik, insoniylik, adolatlilik, to'g'rilik, jasurlik, sofdillik, kamtarlik, samimiylik kabi axloqiy fazilatlar unga yuklatilgan vazifalarni sidqidildan bajarishlari uchun yordam beradi va ta'magirlik, poraxo'rlik, manmanlik, ikkiyuzlamachilik, jinoyatlarda sherikchilik kabi salbiy illatlardan saqlanishga ularni chorlaydi.

Darhaqiqat, hozir ba'zi yoshlar tomonidan axloqsizlikni madaniyat deb bilish, ma'naviy qadriyatlarni mensimay, eskilik sarqiti deb qarash holatlari ko'zga tashlanmoqda. Bu, albatta, juda achinarli holatdir. Yoshlar bizning kelajagimiz. Ertaga biz ularni o'zimizga voris qoldiramiz va ajdodlarimiz tomonidan asrlar davomida yetib kelgan ma'naviy merosni ularga kelajak avlodlarga yetkazib berish hamda shu orqali boy milliy ma'naviyatimizdan ularni boxabar qilish vazifasini yoshlarga topshiramiz. Aynan shu yoshlar boshqa sohalar kabi O'zbekiston milliy bojxona tizimining istiqboli va rivojini ta'minlaydilar.

Olimlarning shaxs axloqiy sifatlari klassifikatsiyalari tahlili, axloqiy sifatlarning asosiy mazmunini ijtimoiylikni ongga va insonlar xatti-harakati o'zaro munosabatida ekanligini aniqlanishiga imkon berdi va bunga asoslanib bojxona xizmati xodimining axloqiy sifatlarni 3 ta katta guruhga ajratish mumkin. Xususan:

Atrofda ijtimoiy va tabiiy muhitga nisbatan munosabatni xarakterlovchi axloqiy sifatlari: tabiatga nisbatan muhabbat va unga milliy boylik sifatida munosabatda bo'lish, tabiatga g'amxo'rlik, ekologik ong, madaniyat va san'at yodgorliklarini himoya qilish haqida jonkuyarlik, jamoat boyligiga nisbatan hurmat va uni saqlanishi haqida jonbozlik hamda o'z mamlakatiga (vatanparvarlik) va o'z xalqiga (fuqarolik) sodiqligi.

Kasbiy faoliyatga nisbatan munosabatni xarakterlovchi axloqiy sifatlari (Davlat bojxona xizmati organi xodimining o'dob-axloq qoidalari bilan reglamentlangan): xizmat burchi, kasbiy faxrlanish hissi, mardlik, dadillik, qat'iyatlilik, intizomlilik, ziddiyatli vaziyatlardan chiqib keta olish mahorati, nostandart vaziyatlarda axloqiy qarorlar qabul qila olish qobiliyati.

O'zi va o'z xatti-harakatlariga nisbatan munosabatni xarakterlovchi axloqiy sifatlar: or-nomus, adolatlilik, halollik, vijdoniylik, mas'uliyatlilik, prinsipiiallik.

Bo'lajak bojxona xizmati xodimlarida mafkuraviy immunitetni rivojlantirish murakkab va uzoq davom etadigan jarayondir. Unga ko'ra, bo'lajak bojxona xizmati xodimlarini jamiyat hayotida salbiy ko'rinishlarni bartaraf etish uchun kurashish qobiliyatiga ega bo'lishlari uchun kelgusidagi kasbiy faoliyat uchun zarur bo'lgan fazilatlar to'plamining o'ziga xos xususiyatini hisobga olgan holda talaba va tinglovchi shaxsiga tarbiyaviy ta'sirlarning tizimligini va uzluksizligini ijodkorona olib borish darkor. Bu esa bojxona xizmati xodimi amal qilishi zarur bo'lgan ahloqiy tamoyillar, ya'ni shaxsiy majburiyatlar tamoyili, qonuniylik tamoyili, ob'ektivlik tamoyili, maxfiylik tamoyili, mas'uliyatlilik tamoyilini aniqlashimizga imkon berdi.

Hozirgi kunda oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilarining asosiy vazifalaridan biri talaba va tinglovchilarni bilimli mutaxassis etib tayyorlash zamirida ularda axloqiy fazilatlarni rivojlantirishdan ham iborat. Buning uchun:

- milliy ma'naviy merosimizdan foydalangan holda tinglovchilarda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish;
- halollik va poklikka ularni odatlantirish;
- xalqimiz va yurtimiz farovonligi yo'lida xizmat qiladigan fidoiy bojxona xodimi etib tarbiyalash;
- ta'magirlik, poraxo'rlik, mansabparastlik, manmanlik kabilarga nafrat hisini tinglovchilarda hosil qilish;
- yaxshilik va ezgulikka intiluvchan, yomonlik va yovuzlikka qarshi kurashadigan inson sifatida ularni tayyorlash lozim.

Bizning nazarimizda, bugungi dunyoning global muammosi umuminsoniy qadriyatlarni o'zida mujassamlashtirgan ijtimoiy axloqning muhimligini anglab yetishdagi qiyinchilikda namoyon bo'lmoqda. Dunyoning yaxlitligi va uning istiqbolini faqat yuksak axloqiy munosabatlar kafolatlashi mumkin.

Demak, milliy bojxona tizimi faoliyatini takomillashtirish fuqarolarga talab darajasida xizmat ko'rsatish vazifasini yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo'lgan bojxona xodimlarigina samarali amalga oshira oladilar.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Mirziyoev Sh. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birga barpo etamiz. Toshkent: O'zbekiston, 2016. -56 b. / Mirziyoev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. O'zbekiston, 2017.-488 b.
2. O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 18-oktyabrdagi yangi tahrirdagi "Davlat bojxona xizmati to'g'risida"gi O'RQ-502-son Qonuni
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 25-mart kuni "Davlat bojxona xizmati organlarining faoliyatini tashkil etish va bojxona ma'muriyatchiligini yanada takomillashtirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-122-son qarori.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 25-martdagi "Davlat bojxona xizmati organlarining faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-57-son Farmoni

6. Божович Л.И. Проблемы формирования личности: избранные психологические труды. Воронеж: Институт практической психологии, 2005. – 280 с. 178 б.
7. Шердаков В.Н. Иллюзия добра: Моральные ценности и религиозная вера. М., 1992.
8. Петропавловский Р.В. Значение и ценность морали для личности // Мораль, сознание и поведение. Москва, 2006.-№ 4. - Б.21-22.